



## O'ZBEK TILIDA ARTIONIMLARNING QO'LLANILISHI

*Azamatova O.O.*

*Andijon davlat pedagogika instituti  
Filologiya fakulteti katta o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** onomastika, nomshunoslik, tamoyil, ideonim, sema, toponim, topoartionim.

**Ключевые слова:** ономастика, номенология, принцип, идеоним, сема, топоним, топоартионим.

**Key words:** onomastics, nomenclology, principle, ideonym, sema, toponym, topoartionim.

Kirish. Jamiyatda tilga oid madaniy ma'lumotlarining maxsus asosi bo'lgan artionimlar ko'pincha tarkibiy qism sifatida ma'lum bir toponimni o'z ichiga oladi. U yoki bu toponimni artionimik qurilishining tarkibiy qismi sifatida geografik ob'ektning madaniy resurslar uchun ahamiyatini qayd etish imkonini beradi. Toponimlar qimmatli etnolingvistik va tarixiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Toponimik lug'atning juda ko'p turlari artionimlarda aks ettirilgan.

Mavzuning dolzarbligi. Toponimik lug'atning tahlili xalqning etnik dunyoqarashi, mentalitetining shakllanishi va taraqqiyotining muayyan tarixiy bosqichlarini aniqlash imkonini beradi. Topoartionimlarni o'rganish shaxsning umumiy bilimi, uning atrofidagi dunyoni bilishini va asosiy bilimlarning shakllanish darajasini belgilaydi: "O'zbekistonda mart", "Kattaqo'rg'on suv ombori" (O'rol Tansiqboev), "Bo'stonliqda bahor", "Ark ichra", "Oqtosh" (CHingiz Axmarov), "Hovuz bo'yida", "Xumsonda", "Tongda Tojmahal" (Abdullaev Abdulhaq), "Oltin topgan kon", "Boysun", "Bahor. Sherobod manzarasi". SHuningdek, muayyan hudud tarixi va rivojlanishining o'ziga xosligi va xususiyatlarini, uning geografik va etnik xususiyatlarini tushunish uchun zarurdir. Toponimik lug'atning eng qadimiylaridan biri gidronimlardir, chunki xalqning yashash joylari shahar va qishloqlarning qurilishidan ancha oldin daryo va ko'llar tashkil etilgan. Gidronimika keng ma'nodagi tabiiy suv ob'ektlari va suv inshooti nomlarini tadqiq etadi.[4]



Sun'iy va tabiiy, yirik va kichik suv ob'ektlari hamda suv inshootlarining atoqli otlari gidronimlar hisoblanadi. Artonimik konstruksiyaga komponent sifatida suv bilan bog'liq daryo, dengiz nomlari kiritilgan gidronimlarini quyidagilarda ifodalash mumkin: "Kattaqo'rg'on suv ombori kurilishida" (Oganes Tatevosyan), "Alvido, Orol!" (Ne'mat Qo'ziboev), "Hovuz bo'yidagi choyxona" (Zinaida Kovalevskaya), "Katta Farg'ona kanali qurilishida" (Diler Imomov), "Orol" (Zokir Inog'omov), "Farg'ona kanali" (Muhammadhon Nuridinov), "Qora daryo" (Bobur Ismoilov), "O'lik dengiz xotirasiga" (Sobirjon Rahmetov), "Soy bo'yida" (CHingiz Axmarov).

Suv hayot manbaidir. Hududimiz okean va dengizlardan biroz olis bo'lgani sabab suv masalasi qadimdan dolzarb hisoblanadi. Bu borada kanallar va ariqlarning ochilishi xalqimiz uchun quvonchli hamda foydali jarayonlar edi.

Orol mavzusini ham deyarli barcha rassomlar ijodida uchratish mumkin. Boisi, Orol muammosi nafaqat Qoraqalpog'iston yoki O'zbekistonning, balki butun mintaqa uchun muhim masaladir.

Tadqiqot natijalari. O'zbek tilshunosligining artonimik konstruksiyalarida oykonimlar – "har qanday aholi punktining to'g'ri nomi"[11] ning mavjudligini ham ko'rish mumkin. Samarqand, Buxoro, Xiva SHarqning qadimiy shaharlaridan bo'lib, o'zining noz-ne'matalari, boy tabiati, ma'naviy merosi, betakror tarixi, olamshumul me'moriy obidalar bilan dunyo jamoatchiligining diqqat e'tiborini o'ziga qaratib kelayotgan "sayqali ro'yi zamindir".

Bilamizki, Samarqand 2750 yillik tarixga ega. Temuriylar sulolasi davrida solingan arxitektura yodgorliklari ahamiyati jihatidan qadimgi Misr, Xitoy, Hindiston, Yunoniston va Rimdagi arxitektura durdonalaridan sira ham qolishmaydi.

Qadimiy Samarqandning markazi bo'lgan Registon XV-XVIII asrlardagi Markaziy Osiyo bunyodkorligining yuksak misollaridan biridir. Maydon uch tomondan Ulug'bek, SHerdor, Tillakori madrasalari bilan o'ralgan. Registon shaharning asosiy yo'llari chorrahasida joylashgani uchun aynan shu yerda hukmdorlarning Farmonlari xalqqa e'lon qilingan, savdo avjida bo'lgan. Samarqand shahrining janubida joylashgan Go'ri Amir maqbarasida (XIV-XV asrlar) Amir Temur, Mirzo Ulug'bek kabi Temuriylar sulolasi vakillari dafn etilgan.

Samarqandda har bir ko'cha, suv xavzasi o'z tarixiga ega. Ziyoratgox sanaluvchi Shohi Zinda (Tirik Shox) majmuasi Muhammad Rasulullohning amakisining o'g'li-Qusam ibn Abbos nomi bilan bog'liq. Ushbu artonimlar tarkibiga kiruvchi yurtimiz shaharlarining nomlari quyidagi sarlavhalarda aks

etgan: “Xo’jakent”, “Samarqand bog’lari” (O’rol Tansiqboev), “Samarqand masjidlar”, “Ark ichra”, (Chingiz Axmarov), “Boysun” (Lekim Ibrohimov).

Artionimlarining bir qismi sifatida shaharlarni nomlaydigan oykonimlar ham o’zbek tili madaniyatidagi ayrim shaharlarning pretsedentini va dolzarbligini ko’rsatishi mumkin. Ushbu tarixiy shahar va obidalarning nomlarini artionimlar sifatida: “Buxoro. CHor Minor”, “Buxoro. Minora Kalon”, “Bibi Xonim”, “Registon”, “Tilla-kori”, “SHoh-i-Zinda” (Qutlug’ Basharov), “Qadim Samarqand” (G’ofur Abdurahmonov), “Go’ri Amir” (No’mon Aminov), “SHerdor yonida” (Nadejda Kashina), “Registon maydoni tush paytida”, “SHerdor Madrasasi oldida” (Oganes Tatesovna), “Oltin Buxoro” (Javlon Umarbekov) va boshqa san’at asarlarida ko’rish mumkin.

Yurtimiz tarixi uchun Samarqand, Buxoro shaharlarining o’rni juda muhimdir. Ular butun o’zbek tilshunosligi toponimik tizimining o’zagi sifatida belgilanishi va makrotoponimlar sifatida tasniflanishi mumkin. Bu oykonimlarning mavjudligi artionimlarning bir qismi sifatida ularning fundamental ma’nosini tasdiqlaydi.

O’zbek artionimlari xorijiy shaharni nomlaydigan toponimik komponent bilan ham tavsiflanadi. Rassomlarining shaharlar tasviridagi afzalliklarini o’zbek mentaliteti uchun boshqa yurt madaniyatining ahamiyatini o’ziga xos belgisi sifatida ham ko’rish mumkin: “Quddusga kirish” (Niyozali Xolmatov), “Evropani o’g’irlanishi” (Furqat Bozorov), “Katta Nyu York”, “Taym skver. Vitrina”, “Nyu York. Aravakash” (Alisher Mirzaev), “Venetsiya oqshomi” (Eshmamat Xaitov), “Kuz. Moskva” (Dilorom Mamedova), “Pomirdagi Qoraqo’l”, “Belesda. Qirg’iziston”, “Birchmulla vodiysi” (O’rol Tansiqboev), “Afg’oniston — 83”, “Afg’oniston tongi”, “Tongda Tojmahal” (Abdullaev Abdulhaq).

Olingan natijalar tahlili va xulosalar. Artonimik konstruksiyalarning ajralmas qismi bo’lgan toponimlarni juda ko’plab rasmlar sarlavhalarida kuzatish mumkin: “Eski Toshkent”, “Beshyog’och”, “Surxondaryo” (Tohirjon Mirjalilov), “Farg’ona vodiysi”, “Tuproqqal’a”, “Xiva. Bozorga”, “Ma’mun akademiyasi” (Ne’mat Qo’ziboev), “Boysun”, “Xumson” (Sobir Rametov), “Urgutda” (Zinaida Kovalevskaya), “SHohimardonda kuz”, “Andijonda qish” (Obidjon Bakirov) “Boysunda” (Sobirjon Rahmetov).

Beshyog’och (turkiycha) beshta daraxt ma’nosida. Muhammad Solihning “Toshkentning yangi tarixi” nomli asarida Beshyog’och qabila nomi bilan bog’liqligi qayd etilgan. Qo’lyozma manbalarda Zangiota dahasi deb ham yuritilgan. Tuproqqal’a-tarixiy yodgorligi miloddan avvalgi I-IV va VI asrlarga tegishli bo’lib u 1938 yil S.P.Tolstov ekspeditsiyasi tomonidan kashf



etilgan. “Tuproqqal’a” eramizning I-IV asrlarida Xorazm davlatining poytaxti hisoblangan. SHahar tarixi hamon o’rganilmoqda.

Tasviriy san’at asarlarini nomlovchi topoartionimlar leksikamizni boyitish bilan birga turli xil joylarning nomlari haqida ma’lumot beradi, qo’llangan nomning leksik ma’nosi va kelib chiqish tarixi yuzasidan ham bilimlar beradi.

#### Adabiyotlar:

1. А.Нурмонов, Ш.Искандарова Умумий Тилшунослик Андижон, 2007, Б 105
2. А.Ф.Лосев - [Соч. в 9-и томах, т.2] Очерки античного символизма и мифологии Издательство «Мысль» Москва 1993
3. Бегматов Е. Ўзбек тили антропонимикаси. - Тошкент, 2013
4. N.V.Begaliyev, A.M.Turobov Samarqand Toponimiyasi Samarqand – 2015
5. Бегматов Э., Авлоқулов Я. Ономастик кўлам тушунчаси // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007. № 3. – Б. 20
6. Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси. Наманган, 2008, Б 168
7. Белецкий, А. А. Тилшуносликнинг лексикологияси ва назарияси (ономастика) /А. А. Белецкий. - Киев: Киев нашриёти. Университет, 1972, Б 208
8. Вайсман А.Д.Грекча-русча луғат. – Санкт-Петербург, 1899, Б 1370
9. Василева Н.В. Матн оламидаги тегишли ном. М.: Китоб. “Либроком” уйи, 2008 йил.
10. Дўсимов З., Изучение лингвистических особенностей географических названий. Ташкент. 1989, с 29.
11. Подолская Н.В. Рус ономастик терминология луғати. М.: Наука, 1978 йил
12. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том, Т. Фан 1975, Б 82
13. Azamatova O. Ona tili darslarida lug’at ustida ishlash Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2022, Б 67-68

#### РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada o‘zbek nomshunosligining o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab eng rivojlangan sohalardan biriga aylangani, shuningdek, bu sohaning antroponimika, toponimika, etnonimika kabi bir qator sohalari bilan bir qatorda ideonimlarning, xususan artionimlar turining tasviriy san’at nomlari bilan bo‘g‘liq olib borilayotgan tadqiqot ishi va unadagi nomlarning nomlanish tamoyillari haqida so‘z boradi.

#### РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается тот факт, что узбекская номенология стала одной из наиболее развитых областей со второй половины прошлого века, а также ряд областей этой области, таких как антропонимия, топонимия, этнонимия, а также идеонимия, в конкретных артонимов, связано с названиями изобразительных искусств, обсуждается проводимая исследовательская работа и принципы наименования названий в ней.

#### SUMMARY

In this article, the fact that Uzbek nomenclology has become one of the most developed fields since the second half of the last century, as well as a number of fields of this field such as anthroponymy, toponymy, ethnonymy, as well as ideonyms, in particular artonyms, is related to the names of visual arts. the research work being conducted and the naming principles of the names in it are discussed.